

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA RANGNING G'OYAVIY YO'NALISHNI TASHKILLASHDAGI AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ЦВЕТА В ОРГАНИЗАЦИИ ИДЕЙНОГО НАПРАВЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

THE IMPORTANCE OF COLOR IN ORGANIZING THE IDEOLOGICAL DIRECTION IN MODERN UZBEK PROSE

Abduraxmonov Abiljon Abdusamatovich¹

¹Abduraxmonov Abiljon Abdusamatovich,

– FarDU doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Аннотация

Maqolada zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati masalasi Shoyim Bo'taevning "Qora tuman" hikoyasi misolida ko'riladi. Tadqiqot davomida tarixiy-adabiy, genetik, qiyosiy-tarixiy, badiiy tahlil, tavsiflash usullaridan foydalaniladi. Hikoya syujetida to'rt epizod o'zaro qora rang vositasida bog'lanadi. Muallif tomonidan "tanishtirilayotgan" qahramonning taqdiri tumanning rang ifodasi bilan bog'lanishi orqali sodir bo'lishi muqarrar fojiali taqdiridan darak beradi. Ta'kid orqali u tasavvurda yanada qat'iy o'rinishga boradi: birikmalarida qora rangning orttirma darajasi bilan birga takroriy, ta'kidiy qo'llanishi leytmotiv sifatida keyingi fojaviy manzaralardan darakchi bo'lib keladi. Qora rangning ramziy – salbiy ifodasi psixologik drammatizmida aks eta boradi. Asarda qora rang nafaqat salbiy ifodada, balki ijobiy ramzni ham ifodalaydi. Shuningdek, qora rang timsolidagi ikki xil tushuncha qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarga parallel ko'chadi. Hikoyada rang yozuvchi g'oyaviy mantig'ini shakllantiruvchi muhim omil bo'lib kelishi, bunda rangning ramziy ifodasi asardagi obraz va detallarni o'z xususiyatiga xos ravishda badiiy makonda harakatlantirilishi aniqlanadi.

Аннотация

В данной статье вопрос о значении цвета в организации идейной направленности в современной узбекской прозе рассматривается на примере повести Шоима Бутаева «Чёрный туман». В ходе исследования используются историко-литературный, генетический, сравнительно-исторический, художественный анализ, методы описания. В сюжете рассказа четыре эпизода связаны между собой посредством черного цвета. Тот факт, что судьба «представленного» автором героя произойдет через связь с цветовым выражением местности, свидетельствует о неизбежности трагической судьбы. Посредством акцентирования он прочнее закрепляется в воображении: многократное, подчеркнутое использование черного цвета в его сочетаниях, как лейтмотив, становится предзнаменованием дальнейших трагических сцен. Символически-негативное выражение черного цвета находит свое отражение в психологической драме. В произведении черный цвет является не только отрицательным выражением, но и положительным символом. Также два разных понятия в символе черного цвета движутся параллельно противоречиям в психике героя. В повести цвет является важным фактором, формирующим идейную логику писателя, в которой символическое выражение цвета по-своему перемещает образы и детали произведения в художественном пространстве.

Abstract

In this article, the question of the meaning of color in the organization of the ideological orientation in modern Uzbek prose is considered on the example of Shoim Butaev's story "Black Fog". In the course of the research, historical-literary, genetic, comparative-historical, artistic analysis, description methods are used. In the plot of the story, four episodes are interconnected by means of black. The fact that the fate of the hero "represented" by the author will occur through a connection with the color expression of the area indicates the inevitability of a tragic fate. Through accentuation, it is more firmly fixed in the imagination: the repeated, emphasized use of black in its combinations, as a leitmotif, becomes an omen of further tragic scenes. The symbolic-negative expression of black is reflected in the psychological drama. In the work, black is not only a negative expression, but also a positive symbol. Also, two different concepts in the black symbol move parallel to the contradictions in the hero's psyche. In the story, color is an important factor that forms the ideological logic of the writer, in which the symbolic expression of color in its own way moves the images and details of the work in the artistic space.

Kalit so'zlar: rang, ramz, ifoda, badiiy g'oya, badiiy makon, tushuncha, psixologik drammatizm, omil, vosita.

Ключевые слова: цвет, символ, экспрессия, художественная идея, художественное пространство, концепт, психологическая драма, фактор, среда.

Key words: color, symbol, expression, artistic idea, artistic space, concept, psychological drama, factor, environment.

KIRISH

Keyingi davrlarda adabiy asarlarda rangning badiiy asar g'oyasini ochib berishdagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Yevropa adabiyotida o'ziga xos hodisa sifatida talqin etish mumkin bo'lgan bu jarayon zamonaviy o'zbek adabiyotida ham jiddiy tajribadan o'ta boshladi.

XX asr boshlari zamonaviy o'zbek nasrida rang o'zining ramziy ma'nolari bilan ijodiy g'oyani ochishda yordamchi bo'lgan detalni sifatlovchisi bo'lib keldi. Buni Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi

ADABIYOTSHUNOSLIK

yozuvchilar ijodida kuzatish mumkin. Asr o'rtalariga kelib Abdulla Qahhor hikoyalarida g'oyaviy niyat yo'nalishini ochib beruvchi kalit darajasida namoyon bo'la boshlagan bo'lsa, Shukur Xolmirzaev ijodida o'ziga xos tamoyilni kasb etish tajribasiga aylandi ham. Shu tariqa zamonaviy o'zbek nasrida rangga asar g'oyaviy-mantiqiy ahamiyatini yoritishda muhim vazifalar ortila boshladi. Buning yorqin misollarini yana o'zbek nasri avlodlari bo'yicha Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'taev, Ulug'bek Hamdam, Abduqayum Yo'ldosh, Nabi Jalollidin, Zulfiya Qurolboy qizi, Dilrabo Mingboeva, Salim Ashur, Olim Otaxonov, Asadullo Mirzaakbarov, Manzura Abdullaeva, Mashuma Ahmedova, Asror Allayorov, To'lqin Eshbek, Bibi Robia Sadova kabilarning ijodlarida kuzatamiz.

Nasriy asar matni tarkibida kelgan rang o'zining ramziy ifodasi bilan asar g'oyasini yo'naltiruvchi asosiy omil bo'lib kelishi zamonaviy nasrda kuzatiladigan holatlardan biridir. Rangning badiiy g'oya yo'naltirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Chunki, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va murakkabliklarga boy bo'lgan voqelikning tub mohiyatini chuqurroq anglab, estetik jihatdan osonroq tushunishda rang vositasidan foydalanish keng imkoniyatlar yaratib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rang tabiati xususidagi faylasuf Gyotening fikrlari e'tiborga molik. "Tabiatning birlamchi hodislari qatorida rang, shubhasiz, o'z zimmasiga yuklatilgan oddiy harakatlar doirasini katta xilma-xillikda bajarganicha shunchalik yuqori o'rin egallaydi. Hattoki u o'zining eng umumiy elementar namoyon bo'lishida, materialning tuzilishi va shaklidan qat'iy nazar, ko'rish sezgilariga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. ... bu orqali esa ruhiyatga ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat alohida olinganda – o'ziga xos, o'zaro bog'langanda – qisman monandlikda, shuningdek, ko'pincha nomuvofiq, lekin har doim muayyan va sezilarli, bevosita axloq jabhasiga tutashadi. Shuning uchun sanhatning elementi sifatida olingan rangni yuksak estetik maqsadlarga erishishda ko'maklashishga qo'llash mumkindir", [1,623] deb yozgan edi u.

Darhaqiqat, "rang o'zida murakkab tabiiy-madaniy, estetik-kommunikativ va falsafiy-estetik fenomen namoyon qiladi. U jamiyatning zamonaviy taraqqiyot bosqichida doimo kengayadi hamda ko'plab o'zgarishlarga uchrab boradi. Bularga qimmatli, belgili, refleksiv, emotsional-kommunikativ, etnik, diniy, siyosiy identifikatsiyalangan boshqa butun boshli qatorlar kiradi." [2]

Asarda, asosan, predmetning sifatlovchisi shaklida ishtirok etayotgan rang aslida sifatlanmishga o'z ramziy ifodasi doirasida ta'sir ko'rsatib, xususiyatiga ko'ra uni xoslantiradi. Natijada sifatlanmish predmet rangning ramziy ifodasi doirasidagi tushunchaga yo'naltiriladi.

Rangning asardagi ishtiroki faol yoki passiv ko'rinishlarda bo'lishiga qaramasdan uning ramziga ko'ra ta'siri ahamiyatli, ya'ni badiiy g'oyani yo'naltiruvchi kuchi o'ta samarali bo'lishi mumkin. Buni uning matndagi sonida emas, salmog'ida ekanligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot davomida tarixiy-adabiy, genetik, qiyosiy-tarixiy, badiiy tahlil, taksonomik, tavsiflash metodlaridan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ranglarning bunday ishtiroki asosan matn boshida va oxirida faollashgani kuzatiladi. Dastlabki gap tarkibida kelgan rang o'zining ramziy ifodasini butun kontekstga xuddi buloq boshidan tarqalayotgan suvdagidek "oqizib yuboradi". Natijada butun matn shu rangning "ta'sirida qoladi."

Satrboshilar sari badiiy g'oya ifodasidagi rang "o'chib ketmasligi" uchun ushbu rang yana keltirilib, urg'ulab turilishi ham sodir bo'lib turadi. Bu bilan badiiy ong oqimi ifodalanayotgan rangning ramziy tushunchalari doirasida harakatlanishiga yo'llab turiladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning ramziy ifodasidan badiiy g'oyani yo'naltirishda unumli foydalanish holatlari keyingi davrlarda ko'p uchraydigan holatga aylanmoqda. Buning yorqin misoli sifatida Shoyim Bo'tayevning "Qora tuman" hikoyasi bu xususda alohida tadqiqqa loyiq hikoyadir. Bunda yozuvchi o'zbek nasrida rangdan ijodiy mantiqning boshlang'ich nuqtasi va dinamikasini yo'naltiruvchi asosiy omil sifatida muvafaqqiyatli foydalana olgan deyishimiz mumkin.

Fikrimizni isbotlashga o'tsak.

Hikoyaning statistik ko'rsatkichlari quyidagicha:

2699 ta so'z

37 ta satrboshi.

Ranglarning qo'llanishi:

Qora – 19 marta (9 ta o'rinda alohida);

Lojuvard – 2 marta;

Oq – 4 marta (qirov, bo'z shakllari bilan);

Qizil – 4 marta (shartli: "Sho'rolar" tushunchasi).

Jami: 29 marta rang tushunchasiga murojaat qilingan.

Hikoyaning "Qora tuman" deb nomlanishi qora rangning ramziy ifodasini badiiy g'oyani namoyon qilishda qo'llanishi bilan uning g'oyaviy-badiiy ruhiyatidan darak beradi. Qora rang ijodiy g'oyani badiiy xulosa tomon yo'nalishda boshlang'ich, tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Asar nomlanishidan boshlab g'ayritabiiy bayon beriladi. Bu "qora tuman" so'z birikmasidir.

Bilamizki, tabiatdagi tuman hodisasi oq rangda namoyon bo'ladi. Nomlanishidan ko'rinib turibdiki, tumanning ataylab qora rangda sifatlab berilishi (oq emas!) asar voqeligida makondagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy inqiroz tasviri ekanidan darak berib turibdi.

Asarda Turkistondagi "qizillar" (Sho'rolar)ga qarshi milliy ozodlik harakatining so'nggi pallasidagi xalq kurashchilarining fojiaiy taqdiri aks ettiriladi. Voqelik davri o'sha mudhish tarixiy davrning ikki kuni.

Turkistondagi qizillar (Sho'rolar) bosqiniga qarshi milliy ozodlik harakatining fojiaiy so'nggi kunlari qora rangning ramziy ifoda timsolida badiiy tasvir aspektida yoritib beriladi. Hikoyada o'lkaning qizillar tomonidan uzil-kesil mahv etilishidagi millatning ijtimoiy-ma'naviy tanazzuli go'yoki qora rang vositasida tasvirlab beriladi.

Hikoya syujetida to'rt epizod bo'lib, ular o'zaro qora rang vositasida bog'lanadi.

Hozir ko'zlari qizarib-shishgan, betinim o'ylayotganidan peshonasi g'ijimlanib-tirishib ketgan, ko'rayotgan narsasi – Qora, Qop-qora tuman omad undan yuz o'g'irganidan nishon berardi. [3]

Ko'rinadiki, muallif tomonidan "tanishtirilayotgan" qahramonning taqdiri tumanning rang ifodasi bilan bog'lanishi orqali sodir bo'lishi muqarrar fojiali taqdiridan darak beradi. Ta'kid orqali u tasavvurda yanada qat'iy o'rirlasha boradi: *Qora tuman...*

Shu jumladan so'ng voqelikdagi "qora" fosh etila boriladi.

Xolbo'taning qayrilib qaramaganligiyu o'z o'y-xayollariga g'arq bo'lib ketayotganligi ponsodga nopisandlikdek tuyuldi, ichidan qirindi o'tib o'ylardi: «Tugab boryapti-yu, dimog'u firog'iga o'laymi? Kuni bitgan – o'zi ham sezib turibdi chog'i, faqatgina uning qoni evaziga qizillarning ehtiromiga sazovor bo'lish mumkin. Busiz, u meni ham, boshqalarni ham o'zi ketayotgan jahannamga eltadi. Anavu valakisalang to'rt yigit buni tushunmaydi-yu, qo'rboshining soyasiga hamon ilgargidek namoz o'qishadi». [3]

Bu Xolbo'taga shu kunga qadar sodiq bo'lib kelgan Saidmurod ponsodning o'y-xayollari edi.

Qora tuman ta'biri asar voqealari davomida ochila boradi. O'lkadagi milliy ozodlik harakatining qizillar tomonidan mahalliy xalq vakillarini o'zlariga og'dirib olish bilangina uzil-kesil bostirishdagi milliy ma'naviy tanazzul darajasiga yetganligi asar badiiy aspektiga qo'yiladi. Xolbo'ta lakotning tog' etagidagi uyiga tashrifidan faxrlanib yuradigan Hayit badaldek kimsalar undan yuz o'g'irgan. Qizillarga xayrixoh bo'lgan Zokir lakot orqali u tomonga o'tishga hozirlanishi tasvirlanadi. Aynan shunday maslahat ustiga to'rt yigiti bilan kelib qolgan Xolbo'ta va ular o'rtaidagi munosabatlarda yuzaga keladi. Go'yoki Zokir lakotni xoinlikda ayblab otishga uringan Saidmurodga Xolbo'ta yo'l qo'ymaydi.

Qora rang ramziy ifodasi ta'sirida asardagi g'oyaviy konsept o'zi ham qizillarga og'ish uchun imkon qidirayotgan Saidmurodning nutqida milliy tanazzul sifatida fosh etiladi:

Xolbo'ta Zokir lakotga bir muddat so'zsiz tikilib turdi. Lakot shoxkosasidan chiqayozgan ko'zlarini betinim uyon-buyoniga olib qochar, so'zlolmasdi...

– Iching o'tib ketdimi?– kesatdi uning nos chekib olganligidan bexabar Saidmurod.

O'tirganlar kulishni ham, kulmaslikni ham bilmay Xolbo'taga qarashdi-yu, darrov boshlarini egishdi – qo'rboshi xomush edi.

– Endi kim tomonidasan? – Saidmurodning alami bosilmasdi. – Biz keldik, bizga o'tib qo'ya qolmaysanmi? Qizillar kelsa, ularga o'tasan, darvozaning tepasiga bayroqlarini tikib qo'yasan... [3]

Asardagi "Qora, qop-qora tuman... Qop-qora, qora tuman..." birikmalarida qora rangning orttirma darajasi bilan birga takroriy, tahkidiy qo'llanishi leytmotiv sifatida keyingi fojiaiy

ADABIYOTSHUNOSLIK

manzaralardan darakchi bo'lib keladi. Keyingi o'rinda bu Saidmurodning Xolbo'tani ma'nan yanchishga urinishdagi xatti-harakatlari bilan tasdig'ini topadi:

"... Qora, qop-qora tuman... Qop-qora, qora tuman... – Bek, – dedi Saidmurod ponsod yigitlardan ancha ilgari ketib, ikkalasi yolg'iz qolishganda, – hali tarqamagan alamangizlikni chuqurlashtirishga ko'nglida behad istak tuyub. – Sizga aytish noo'rin bir gap ko'ksimni o'rtayotir..."

Xolbo'ta jilovni sal tortib qo'ydi. Hirqiroq tovush-da:

– Aytish noo'rin bo'lsa aytma, Saidmurod! – deb qo'ya-qoldi. – Yo'q, bek, – Saidmurod shosha-isha gapni ulagan bo'lsa-da, ovozidagi qat'iyatni yo'qotmadi. – Aytmasam, mandan domantir bo'larsiz, deb qo'rqaman.

– Gapir...

– Hovlingizga Zokir lakot tushib yurganmish...

Ko'ksini o'q teshib o'tgandek Xolbo'ta ot ustida qalqib ketdi...

Osmon chir aylandi ko'z o'ngida, tog'lar ko'ksini tilib yuborgan xanjarga aylandi... Ko'zlari, hoziroq, hoziroq... ortga qaytish, ortga qaytish... nainki qaytish, dovulday uyiga kirib borib ayolining sochidan otning dumiga bog'lab chiqish ishtiyoqida yondi. Hayriyat, ko'zlarini batamom g'azab alangasi egallab olmay, ponsodga qaradiyu, bariga tushundi... Saidmurodning nigohida tantanavor, o'z so'zining nishonga borib tekkanidan masrurlik ifodasi oshkor jilvalanib o'ynardi..." [3]

Ayonlashadiki, qora rangning ramziy – salbiy ifodasi 'sixologik dramatizmda aks eta boradi. Tumanning qora rangda ekanligi va "qora tuman" tushunchasi Xolbo'ta qiyofasidagi xalq ozodligini chulg'ayotgan xoinlik timsolida gavdalana boradi.

Asarda qora rang nafaqat salbiy ifodada balki ijobiy ramzni ham ifodalaydi. Bu xarsang toshni sifatlashda qo'llanishidir.

"Xolbo'ta mog'orlaganday qora xarsang tosh ustida qovoq uyub o'tirardi." [3]

Qahramonning aynan qora rangdagi xarsang tosh ustiga o'tirib xayolga berilishi uning ruhiyatidagi sodir bo'layotgan "qora tuman" ta'siriga qarama-qarshi qo'yiladi. Ya'ni qora rangli ikkita ramziy ifoda o'zaro biri-biriga to'qnash keladi. Xarsang toshni sifatlovchi bo'lib qo'llangan qora rang turkiy xalqlar tushunchasiga ko'ra ulug'likni ifodalab, bu o'rinda millat va makon tushunchalarini birlashtirib keladi.

"Saidmurod bildirmay qo'lini to'pponchaga uzatdi. – Buni barvaqtroq o'ylash kerak edi, bek, – dedi g'azabdan ko'karib. – Bizni tarqatib yuborib, o'zing qizillarga borib sotilmoqchimisam, – birdan sensirashga o'tdi. – Yo'q, anoyini topibsan. Hali Zokir lakotni otib tashlashga qo'ymaganingning boisiniyam endi tushundim. Ular seni saqlab qolishadi, keyin bizni bitta-bitta tutib berasan. Niyatinga yetolmaysan, bek!"

Xolbo'ta boshini ko'targanda Saidmurod o'q uzdi. Qo'rboshining rangi pag'a bo'lib ketdi. Narigi tomondagi raqbadagi cho'zilib yotishgan Komil bilan Hamid sapchib turib ketishdi va darrov nima gap-so'zni fahmlab, Saidmurodga tashlanishdi. Saidmurod ikkinchi o'qni otishga ulgurolmadi, qo'lini orqaga qayirib, to'pponchani tortib olishdi. Shundayam ponsod past tushmas, yigitlarni boloxonador qilib so'kardi." [3]

Asardagi, shuningdek, qora rang timsolidagi ikki xil tushuncha Xolbo'ta ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarga parallel ko'chadi:

"Xolbo'ta qiblaga yuzlandi.

Munojot-muroqaba...

So'ng mogorlanganday qora xarsang tosh ustiga qanday o'tirgan bo'lsa shu angiz o'tirdi – ponsod, – dedi o'z joyidan qimirlamay turgan Saidmurodga. – Bugun ko'z oldimni negadir qora tuman bosib kelaverdi. Ko'ngil sezar ekan-da. Mana endi, ancha tiniqlashgandekman... Hamma biladi – hatto ana shu tog'u toshlar, bulutlar ham biladi, san manim eng yaqin kishim eding. Eng yaqin kishi... Qora tuman boisini endi angladim... Ayt, o'z ishonganing xiyonat qilsa tiriklikning, kurashmoqning zarra qimmatini bormi? Agar shunday hol ro'y bergudek bo'lsa, shuning o'zi o'lim emasmi? Sen menga o'q uzmayoq o'ldirding, bugun. Erkak odam bir marta dunyoga keladi. Bir marta o'ladi. Men o'ldim. Meni xiyonat o'ldirdi." [3]

Xolbo'taning buyrug'i bilan uni otib ketishiga yo'l qo'yilgan Saidmurod o'zinig qabih niyatini amalga oshirib, jasadni ko'rsatish bilan qizillar tomonga o'tib ketishga harakat qiladi.

“Saidmurodgina miq etmay ularning ishini kuzatib, kecha Xolbo’ta o’tirgan mog’orlanganday qora xarsang tosh yonida tik turardi.”[3]

Qora xarsang tosh yonida “qora tuman” bo’lgan xoin Saidmurodning tik turishi qora rangning ikki xil ramziy tushunchalari qarama-qarshiligini bir nuqtada duch kelishi bo’lib tasvirlanadi. Buyuklik va xoinlik. Yozuvchi aynan shu tasvir nuqtasida o’tkinchi manfaat – xoinlikka qarshi qo’yilgan millatning buyukligi qora xarsang tosh kabi abadiy qolishini ta’kidlaydi.

Demak, hikoyada 19 marta qora rang qo’llanib ijodiy mantiq dinamikasini yuzaga keltiradi va ba’zi o’rinlarda leytmotivga ham aylanadi. Agar zanjirda kuzatsak, ijodkor mantig’iy yo’nalishini qora rangning ifoda tushunchalarida qanchalik belgillab berganligini ko’rishimiz mumkin:

Qora ==> Qop-qora ==> Qora tuman...==> Qora-sura bolalar ==> Yo’llari qora bo’lgan ona sochlari. ==> Qora. ==>Qop-qora tuman... ==> Qop-qora ==> Qora tuman... ==> Qora ==> Qop-qora tuman. ==> Qop-qora==> Qora-tuman ==> Qora xarsang==> Qora xarsang==> Qora tuman ==> Qora tuman ==> Qora hayol ==> Qora xarsang.

XULOSA

Xulosa chiqarish mumkinki, hikoyada rang yozuvchi g’oyaviy mantig’ini shakllantiruvchi muhim omil bo’lib keladi. Bunda rangning ramziy ifodasi asardagi obraz va detallarni o’z xususiyatiga xos ravishda badiiy makonda harakatlantiradi. Bunda rang ramziy xususiyatlarining turli ifodasiga ko’ra o’ziga o’zi qarama-qarshi tushunchalarini ifodalashi orqali yozuvchining ijodiy niyatini yoritishda chuqur psixologik drammatizmni namoyon qiluvchi asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Гёте И.В.. К учению о цвете. Хроматика.//Очерк учения о цвете (отрывки). Чувственно-нравственное действие цветов.//Гете И.В. Об искусстве.–М.: 1975. // Goethe I.V. To the doctrine of color. Chromatics.//Essay on the doctrine of color (excerpts). Sensually-moral action of flowers.//Goethe I.V. On Art.–M.: 1975.
2. Суздальцева С.Н. Значение черного цвета в европейской эстетико-хроматической традиции. Дисс...канд. философских наук, – М.: 2010. // Suzdaltseva S.N. The meaning of black in the European aesthetic-chromatic tradition. Diss...cand. philosophical sciences, - M.: 2010.
3. Shoyim Bo’taev. Qora tuman. Hikoya. ziyouz.uz/uzbek-nasri // Shoyim Botaev. Black fog. The story. ziyouz.uz/uzbek-nasri

(Тақризчи: Х.Жўраев – филология фанлари доктори)